



**OLIV TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI DAVLAT XUSUSIY-SHERIKLIK LOYIHALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH
BANK MOLIYA AKADEMIYASI**

Abdurashidova Aziza Abdurauf qizi

Annotatsiya: O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan omillar transport, energetika, ijtimoiy infratuzilma va telekommunikatsiya sohalari infratuzilmasi yetarlicha rivojlanmaganligidandir. Ko'pincha xavf va xarajatlarni etarli darajada aniqlash va baholash yo'q, bu esa loyihaning texnik-iqtisodiy asoslanishining yomonligiga va yirik loyihalarni qabul qilishdan voz kechishga olib keladi. Ushbu muammolarni hal qilishda Jahon amaliyotining eng samarali usullardan biri DXSh munosabatlari asosida investitsion loyihalarni amalga oshirish juda muhim hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Davlat-xususiy sherikchilik, xorij tajribasi, moliyaviy tejamkorlik, xususiy tadbirkorlik, modernizatsiya, kichik biznes, xususiy mulk, davlat mulki.

DXSH bizga nima beradi?

Vazirlar Mahkamasi tomonidan 11.08.2021 yildagi «Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish va ularni moliyalashtirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 509-son qaror qabul qilindi.

«Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida»gi Qonunga muvofiq davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim doirasida xususiy sherikning va (yoki) kreditorning (kreditorlarning) manfaatlarini himoya qilish maqsadida qo'llab-quvvatlashning quyidagi turlari taqdim etilishi mumkin:

- subsidiyalar, shu jumladan xususiy sherikning DXSh loyahasini amalga oshirishdan oladigan, kafolatlangan eng kam daromadini ta'minlashga yo'naltiriladigan subsidiyalar;
- DXSh loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan aktivlar va mol-mulk tarzidagi qo'yilmalar;
- DXSh loyahasini amalga oshirish jarayonida ishlab chiqarilgan yoki yetkazib berilgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) muayyan miqdorini yoki bir qismini iste'mol qilganlik yoki ulardan foydalanganlik uchun to'lovga yo'naltiriladigan O'zbekiston Respublikasi byudjeti tizimining byudjet mablag'lari;
- byudjet ssudalarini, qarzlarini, grantlarini, kredit liniyalarini va moliyalashtirishning boshqa turlarini berish;
- investorlar tomonidan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash maqsadida o'zaro kelishuvga ko'ra qo'shimcha kafolatlar;
- soliq imtiyozlari va preferensiyalari, shuningdek boshqa imtiyozlar;
- boshqa kafolatlar va (yoki) kompensatsiyalar.

Quyidagilar tasdiqlandi:



- Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizom (1);

- 2021 yilda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan davlat-xususiy sheriklik loyihalarining manzilli ro'yhati.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi byudjeti tizimining byudjet mablag'lari, subsidiyalar, byudjet ssudalari va kredit liniyalarini berish tartibini belgilaydi. Moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlashning har bir turi bo'yicha ariza berish va uni ko'rib chiqish tartibi, xarajatlarni tahlil qilish, DXSh loyihasini amalga oshirish uchun mablag'lar ajratish mexanizmi nazarda tutiladi.

DXSH to'g'risidagi qonunning 1-loyihasida tizimni 16 ta sohaga joriy etish ko'zda tutilgan edi. Lekin rivojlanayotgan davlatlar tajribasini o'rgangan holda, tizimni energetika, transport, kommunal, suv xo'jaligi, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, irrigatsiya sohalariga joriy qilish istiqbolliroq, degan xulosaga kelindi.

DXSH borasida Turkiya tajribasini oladigan bo'lsak, ushbu mamlakatda ko'plab loyihalar mahalliy manbalardan moliyalashtiriladi. Bank va moliya tizimining rivojlangani bu borada ancha qo'l keladi. Lekin shuni aytish mumkinki, DXSH bo'yicha O'zbekiston tajribasini ham yaratsa bo'ladi. Zero, Prezidentimiz tomonidan tizimni kengaytirishga doir tezkor chora-tadbirlar ko'rilayotgani mazkur tajribani yaratishga poydevor bo'lishi, shubhasiz. Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi tashkil etilganidan 6 oy o'tib, tezkor ravishda bu bo'yicha qonun, ko'plab qarorlar qabul qilish aytishgagina oson.

Aslida DXSHni barcha sohalarga joriy etish mumkin. Faqat ayrim davlat sheriklarining juda xom, moliyaviy hisob-kitoblarsiz taqdim etayotgan loyihalari bois, tizim ba'zi sohalarda samara bermayotgan bo'lishi mumkin. Amalga oshmay qolayotgan ko'plab loyihalar ayni sabablar tufayli qolib ketayotganini ham tan olish kerak. Ammo buning yechimi qiyin emas. Har qanday davlat sherigi DXSH borasida yondashuvni aniq belgilab olsa, obyektlarni mahalliy investorlarga bersa, bu bo'yicha xatlov o'tkazsa, muammolar kamayadi. Jumladan, madaniyat sohasida ham. Tadbirkorlarning qiziqish darajasi o'rganilib, tenderlar o'tkazilishi tizimning yana-da samaradorligini ta'minlaydi. Xususiy tashabbuslar esa faqat va faqat tizimning taraqqiyotiga xizmat qilishiga shubha yo'q.

Hozirgi kunda dunyoda davlat-xususiy sherikchilik g'oyasi ancha keng tarqalganligi hech kimga sir emas. Britaniya moliyaviy xizmatlari eksportini qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanadigan London xalqaro moliya xizmatining hisobotiga ko'ra, dunyoning 60 dan ortiq mamlakatlari davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini ishlab chiqishgan. Xorijiy mamlakatlarda

davlat-xususiy sherikchilikni qo'llash sohalari juda xilma-xildir. Hamkorlar o'rtasidagi sheriklik (hokimiyat organlari va biznes) turli tuzilmalar doirasida har xil ko'lamdagi vazifalar va kompetensiyalar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Buyuk Britaniyada 1980-yillarda qabul qilingan xususiy moliya modeli 2018-yilda bekor qilinmaguncha, o'z faoliyati davomida 56 milliard funt sterlingga yaqin xususiy investitsiyalar bilan 700 dan ortiq DXSh loyihalarini jalb qildi. Mamlakat



G'aznachiligi 2028 yilgacha infratuzilma rejasini tasdiqladi, unda 600 milliard funt sterling miqdoridagi investitsiyalar ko'zda tutilgan, shundan 50 foizi DXSH orqali jalb qilinishi kerak. 2017-2021 yillarda Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Buyuk Britaniya 2000 dan ortiq loyihalarga ega bo'lgan infratuzilmada loyihalar soni va jalb qilingan mablag'lar hajmi bo'yicha Yevropa bozorida yetakchilardan biri hisoblanadi. Bu davrda umumiy qiymati qariyb 7,5 milliard yevroga teng 30 dan ortiq loyiha amalga oshirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 26-aprelda qabul qilingan 2019-yil 3-mayda "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risi"dagi qonun.
2. Global Infrastructure Hub. URL: <https://www.gihub.org> (Accessed 16.06.2022).
3. Варнавский В. Г. Партнерство государства и частного сектора: формы, проекты, риски / В. Г. Варнавский. – М. : Наука, 2005. – 315 с.

FOYDALANILGAN SAYTLAR:

1. <https://yuz.uz/uz/news/davlat-xususiy-sherikligi-madaniyat-sohasiga-qay-darajada-zarur>
2. <https://lex.uz/docs/-4329270>
3. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/dhsh_loyihalari_qanday_moliy_ alashtiriladi
4. : https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/dhsh_loyihalari_qanday_mol_ iyalashtiriladi

